



VATANPARVARLIK RUHINI TALABALARDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

olimjonozodqulov30@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13945058>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- Oktyabr 2024 yil

Ma'qullandi: 15- Oktyabr 2024 yil

Nashr qilindi: 17- Oktyabr 2024 yil

KEYWORDS

Vatanparvarlik, fidoiylik, ma'naviy meros, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy ong, millat obro'si, sadoqat, sodiqlik, jasurlik, martlik, intizomlilik, zukkolik, matonat, e'tiqod, ma'suliyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kunda vatanparvarlik tarbiyasini tashkillash, vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar va turli vositalardan foydalangan holda harbiy kasbga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish hamda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish masalalari yoritib beriladi.

Vatanparvarlik milliy merosimizning qadimiy tarixi va ma'naviy manbalariga borib ulanadi. Jumladan, "Avesto" adabiy yodgorligida, "Go'ro'g'li", "Alpomish" singari qahramonlik dostonlarida, "Temur tuzuklari", "Mahbub ul-qulub", "Turkiy guliston yohud axloq" kabi ijtimoiy-axloqiy pandnomalarda harbiy vatanparvarlik g'oyalarining targ'iboti bilan bog'liq masalalarni axloqshunoslik kontekstida o'rganish g'oyatda dolzarbdir. Chunki, yoshlarda g'urur, or-nomus, sha'n, ishonch va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish bevosita harbiy vatanparvarlik shartlari asosida reallikka aylanadi. Bundan tashqari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug'lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog'liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatlari aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Ta'kidlash zarurki, o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo'lida fidoiylik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg'u "muhabbat", "ishonch", "sadoqat" kabi axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o'z mavqeini yo'qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir. Vatanparvarlik o'zida birlashtirish, yo'naltirish, jipslashtirish, safarbar qilish kabi axloqiy, sifatlarni mujassam etganligi uchun o'zbek xalqi ma'naviy merosiga taalluqli barcha manbalarda ulug'lanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining ikkinchi bobida "oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish" masalasi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Tanlangan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonini yoritishda asosiy tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglash tadqiqot yo'nalishini aniq belgilab olish imkonini beradi. Ana shu sababli tadqiqotda "talaba", "vatanparvarlik", "vatanparvarlik tarbiyasi", "pedagogik texnologiya", "artpedagogika" kabi tushunchalar mazmuni yoritib berildi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Talaba" tushunchasi "so'rovchilar, talab qiluvchilar, o'quvchilar" sifatida izohlangan. Talaba har bir mamlakatning ijtimoiy jihatdan eng faol, harakatchan, jonkuyar kishi hisoblanadi. Bevosita ilm-fanni o'zlashtirish bilan mashg'ulliklari uchun talabalar jamiyatning intellektual ilg'or qatlami sanaladi. Shuning uchun ham talabalarning chuqur kasbiy hamda ma'naviy-axloqiy tayyorgarlikka ega bo'lish masalasi har doim muhim sanaladi. "Vatanparvarlik" atamasi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da "kishilarning ona yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha" deb ta'riflansa, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu atama "vatanparvarlarga xos ish, xatti-xarakat, xislat" tarzida izohlanadi. "Ma'naviyat" asosiy tushunchalar lug'atida "Vatanparvarlik" -vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxilsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoiylilik ko'rsatib yashash, ona xalqining ornomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oliyjanob faoliyatni anglatadigan tushuncha" deb ta'riflangan.

Vatanparvarlik bu -insonning o'z mamlakatidan faxrlanish tuyg'usini, uning taqdiriga daxldorlik hissiyotini, mustaqil Vatanini himoya qilish hamda xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va mas'uliyatini anglab yetishdir. Vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoiylilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo'lgan hurmat, muxabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur joy oladi, faoliyatiga ta'sir etadi. Vatanparvarlik -bu Vatan ozodligi, ota-ona, el-yurt, jigargo'shalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma'naviy tayyor bo'lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrirlari bilan puxta qurollanish, bu iroda muayyan bilimga ega bo'lishdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mustaqillikning mustahkam zamini nima o'zi? Avvalo, vatanparvarlik, bilim, ma'naviyat. Jamiyatimizda ana shunday vatanparvarlik ruhini, shukronalik ruhini kuchaytirishimiz kerak". Mazkur fikrlar pedagogika sohasi vakillari zimmasiga vatanparvarlik fenomeni bilan bog'liq yuksak vazifalarni amalga oshirishni taqazo etadi. Jumladan, talaba-yoshlarimizning kundalik hayoti, yurish-turishi, ta'lim-tarbiyasi va umuman hayotining oliy maqsadini to'g'ri belgilash ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi.

Vatanparvarlik jasorati haqida fikr yuritganda, o'z aql-idroki bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Mansur as-Samarqandiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abul Fazl an-Nasafiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abdul Qohir Jurjoniy, Faxriddin ar-Roziy, Murzo


Ulug'bek singari o'nlab qomusiy mutafakkirlarni yodga olishimiz zarur. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma'naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har sohada yurtimiz erishayotgan muvaffaqiyatlaridan quvonish, taqdiri uchun qayg'urish, millati bilan g'ururlanish, ona tuprog'i, qadimiy va navquron obidalari, ilm-fan, madaniyat va san'at, sportdagi yutuqlarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini va o'lmas qadiryatlarini ko'z qorachig'idek asrash va kelgusi avlodga avaylab yetkazish –bularning barchasi vatanparvarlikdir. Talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish farzandlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim, kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb ahamiyatga ega vazifalardan biri sifatida tahlil etildi.

Bugun oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarda o'z millatiga sodiqlik, o'z taqdiri uchun qayg'urish va daxldorlik hissini singdirishga, qalblarida yot g'oya va salbiy qarashlarning ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar yetarli darajada tizimli tashkil etilmagan va tashkil etilgan tadbirlarning samaradorligini monitoringi olib borilmagan. Vatanparvarlikka yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy tadbirlarning ma'lum bir mexanizmi yo'lga qo'yilmaganligi ko'zga tashlandi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar, xalqlarning madaniyati va o'zligiga bo'lgan tahdidlar, yot g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlamga aylanib qolmasligini ta'minlash pedagoglar oldiga keng miqyosdagi tizimli-tarbiyaviy-profilaktik vazifalarni qo'ymoqda.

Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning ta'limiy-tarbiyaviy jarayonini yagona tizimga solish maqsadida, tadqiqot jarayonida biz tomonimizdan quydagi andoza ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



Bizningcha, talabalarda vatanparvarlik hissini tarbiyalash jarayonini tezlashtirish va samarali bo'lishini oz bo'lsada ta'minlash maqsadida faqatgina dars jarayoni bilan chegaralanib qolmasdan balki darsdan tashqari vaqtlarda gurux murabbiylari (tuyuterlar) boshchiligida oliy ta'lim muassasalarida tashkillanadigan ma'naviy tadbirlar jarayonida quyidagi mavzularda davra suhbatlari, uchrashuvlar, ko'rik tanlovlar, mahorat darslari va boshqa tadbirlarni o'tkazishlari maqsadga muvofiqdir: «Vatanparvarlik-o'z o'lkasini o'rganishdan, sevishdan boshlanadi», «Mustaqil Vatanim seni kuylayman», «Yosh avlodni o'z madhiyasi, bayrog'i, gerbi, Konstitutsiyasi, Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash», «Mening Vatanim-faxrim», «Ona Vatanga sodiq bo'lish», «Mustaqillik bergan buyuk ne'mat», «Vatan yagonadir, Vatan bittadir», «Alpomish avlodlarimiz», «Yurt o'g'lonlari» shular jumlasidandir. Bu tashkillanidaigan tajriba sinov ishlari davomida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga karatilgan tadbirlar mexanizmi o'z natijasini beradi.

XULOSA

Mamlakatimizning Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch» kitobida komil inson tarbiyasiga keng to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlaydi: “Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsniko'rishi zarur. Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish –ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak”. Bundan ko'rinib turibdiki biz pedagoglar xamda yoshlar tarbiyasiga ma'sul bo'lgan barcha soha vakillari, davlatimiz tomonidan chiqarilgan qaror va qonunlarda ko'rsatilgan maqsad va asosiy vazifalaridan kelib chiqib, yoshlarni Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishimiz zarurdir. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona Zamin tabiati, milliy xalq san'ati, sharqning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish. Bu borada asosiy manba sifatida ARTpedagogika vositalari orqali milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, teatr va kino san'atning boshqa turlari bilan tanishtirish ya'ni yurtimizni diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar uyushtirish, o'zbek xalqining o'tmishdagi va zamonaviy turmush tarzi aks etgan milliy spektakllarga va muzeylarga olib borish. Bu bilan talabalarni o'z xalqiga va yurtiga muxabbatini ortirish lozim. Bularning jamlanmasi va bu vositalar orqali vatarparvarlikni rivojlantirishga qaratilgan maksadga erishiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). RAHBAR VA XODIM MUNOSABATLARINING BOSHQARUV JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(1), 110–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>
2. Xusanova, N. . (2024). FACTORS INFLUENCING THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRESCHOOL CHILDREN WITH DIFFERENT TEMPERAMENTS. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 17–20. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37667>
3. Amangeldiyev, S. . (2024). THE IMPORTANCE OF SOCIAL ACTIVITY IN OLD AGE: A KEY FACTOR FOR PSYCHOLOGICAL WELL-BEING. Евразийский журнал социальных наук,

- философии и культуры, 4(10), 12–16. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37666>
4. Usarboeva, D. (2024). DEVELOPMENT OF THE MECHANISM FOR FORMING ACADEMIC MOBILITY OF STUDENTS. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(8), 40–43. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/37442>
5. Abdurasulov, J. (2024). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 4, Выпуск 7, сс. 38–40). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12721051>
6. Abduqodirova, & Pardaboyeva, M. (2024). THE ROLE OF EMOTIONAL CREATIVITY IN STUDENTS' DECISION-MAKING. INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(7), 27–30. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13819583>
7. <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/2371>
8. Тожибоев Марат Нормадович ТАЛАБАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ // SAI. 2023. №Special Issue 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarning-pedagogik-tafakkurini-rivozhlantirishga-innovatsion-yondashuv>
9. Zilola Dilmurodova. (2024). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NATURE OF ABILITY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 27, 1–4. Retrieved from <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1092>
10. Абдусаматова Шахло Саитмуратовна. (2024). РОЛЬ ПСИХОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ. IMRAS, 7(7), 39–43. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1664>

INNOVATIVE
ACADEMY